

MA'NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHNING ZAMONAVIY MEXANIZIMLARI

Karimov Bozarqul Xuddayberdiyevich

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar"
kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.*

Annotatsiya. Mazkur maqola, zamonamizda o'ta dolzarb bo'lgan ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini o'rganadi. Ma'naviy tahdidlar — bu insonlar ongiga ta'sir ko'rsatish, ularning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarini buzish va jamiyatda noxush o'zgarishlarni yuzaga keltirishni maqsad qilgan har qanday salbiy tashabbuslarni anglatadi. Bunday tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun zamonaviy texnologiyalar, psixologik usullar, madaniy va diniy qadriyatlar asosida turli mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola o'quvchilarga ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishda samarali mexanizmlar, strategiyalar va tashkiliy faoliyatlar haqida to'liq ma'lumot beradi.

Klait so'zlar: ma'naviy tahdidlar, kurashish mexanizmlari, zamonaviy texnologiyalar, psixologik usullar, madaniy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, jamiyat, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация. Настоящая статья исследует современные методы борьбы с духовными угрозами, которые являются крайне актуальными в наше время. Духовные угрозы — это любые негативные инициативы, направленные на воздействие на сознание людей, нарушение их мировоззрения, моральных ценностей и создание неблагоприятных изменений в обществе. Для эффективной борьбы с такими угрозами были разработаны различные механизмы, основанные на современных технологиях, психологических методах, культурных и религиозных ценностях. Эта статья предоставляет полную информацию о эффективных механизмах, стратегиях и организационной деятельности в борьбе с духовными угрозами.

Ключевые слова: духовные угрозы, механизмы борьбы, современные технологии, психологические методы, культурные ценности, религиозные ценности, общество, моральные ценности.

Annotation. This article explores modern methods of combating spiritual threats, which are highly relevant in our time. Spiritual threats refer to any negative initiatives aimed at influencing people's consciousness, disrupting their worldview, moral values, and creating unfavorable changes in society. To effectively combat such threats, various mechanisms have been developed based on modern technologies, psychological methods, and cultural and religious values. This article provides readers with comprehensive information about effective mechanisms, strategies, and organizational activities in the fight against spiritual threats.

Keywords: *spiritual threats, combating mechanisms, modern technologies, psychological methods, cultural values, religious values, society, moral values.*

Kirish. Hozirgi paytda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, mustahkam irodali, zamon talablariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlashga katta ye'tibor berilmoqda. Bizda Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy – me'yoriy asosi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Yoshlari forumida so'zlagan nutqida shunday deyilgan: “Xabaringiz bor yaqinda yoshlar bilan ishlash bo'yicha Toshkent shahri namunasi yaratildi. Ushbu tajriba doirasida poytaxtimizda o'tkazilgan “Yoshlar oyli”da o'g'il – qizlarimizning muammolari, taklif va istaklari “mahallabay” o'rganildi. Ularning yechimlari bo'yicha manziliy dasturlar ishlab chiqildi.

Bu ezgu tashabbus mamlakatimiz bo'ylab keng qanot yozdi. Shuningdek, barcha shahar va tumanlarda yoshlar festivallari bo'lib o'tdi. Ko'pchiligingiz ushbu tadbirlar doirasida qator vazirlar, hokimlar, bankirlar va boshqa mutasaddilar bilan ochiq muloqat qildingiz.

Men ham mazkur jarayonlarni televideniya orqali har kuni kuzatib bordim. Yoshlarimizning dolzarb masalalarini dadil ko'tarib chiqishi, tashabbuslari va shijoati menga juda ma'qul bo'ldi. Dunyoqarashi keng, jonkuyar, ilg'or fikrli farzandlarimiz ko'pligini ko'rib, to'g'risi, nihoyatda quvondim.”

Hozirgi zamonda globallashuv bir tomondan umumiy taraqqiyotga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishini tezlatishga xizmat qilmoqda. Bu esa millat uchun qadr-qimmatga ega urf-odat, an'ana va qadriyatlarning qadrsizlanish xavfini keltirib chiqarmoqda.

Bugun o'zini yorqin namoyon qilayotgan globallashuv bir necha asrlik ildizlariga ega. XV-XVII asrlardagi geografik kashfiyotlar ko'plab mamlakatlar va mintaqalarning xalqaro savdo doirasiga tortilishiga, sanoat revolyutsiyasi esa umumiy aloqalarning yanada kuchayuvi, keng qamrov kasb etishiga iqtisodiy zamin yaratgan edi. Keyingi davrlarda bunday munosabatlar yanada chuqurlashib bordi. XX asr boshlariga kelib yangi sifatiy xarakter kasb etgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan mazkur jarayon globallashuv tushunchasi orqali ifodalana boshlandi.

Xususan, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, “...davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlari-ning tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda”.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda globallashuvning turli jihatlarini farqlanadi. Eng avvalo, aholi sonining tez o'sib borishi sharoitida oziq-ovqat, ichimlik suvi va shu kabi ehtiyojlarni qondirish, tabiatning zo'riqligi bilan bog'liq masalalarni yaxlit holda ifodalovchi demografik-ekologik muammolar mavjudligini alohida qayd qilish lozim.

Hech qanday milliy chegaralarni tan olmaydigan, dunyoda umumiy texnologik va axborot maydoni yuzaga kelayotganini xarakterlovchi texnosferaning globallashuvi uning yana bir o'ziga xos xususiyatidir.

Shu bilan birga, siyosiy globallashuv hamda fan, madaniyat, ta'lim va ahloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv hamda g'oyaviy ta'sir, targ'ibot va tashviqot bilan bog'liq mafkuraviy globallashuv ham sodir bo'layotganini yoddan chiqarmaslik zarur.

Geostrategik maqsadlarni amalga oshirishda mafkuraning o'rnini haqida gap ketar ekan, masalaning mohiyatini tushunish uchun g'oya va ong munosabatiga dahldor bo'lgan quyidagi holatga e'tibor berish zarur. Muayyan g'oya inson tomonidan qabul qilinmasligi yoki u shaxs ongida faqat muayyan axborot sifatida saqlanib qolishi mumkin. Birinchi holatda g'oya inson ongida hech qanday iz qoldirmasa, ikkinchisida g'oya shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

"Inson ongi va qalbi uchun kurash" degan formulada g'oya va ong munosabati sharqona falsafiy tafakkur asosida ifodalab berilgan. G'oya faqatgina inson qalbini egallagan, ma'naviy-ruhiy dunyosining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda inson ongi orqali uning qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Kishilarning ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga - mafkuraviy poligonga aylanib qolmoqda.

Bugungi kunda esa, u yoki bu hududda hukmronlik qilish uchun u yerlarni bosib olish, aholisini mahv etish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari "ma'qul" yo'nalishga o'zgartirilgan yerlik aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayrislomiy g'oyalarni tarqatishga harakat qilgan kimsalar ana shunday g'arazli maqsadlarni, ya'ni yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidani chetlatib yuborishni ko'zda tutgan edilar. Chet ellarda "ta'lim" olgan vahhobiylar, "hizbut tahrir"chilarning yoshlarimizning ongini zaharlash yo'lidagi harakatlarini ham aynan shunday baholash mumkin.

Biz hozirgi davrda fan, texnika, texnologiya sohasidagi yutuqlarni butun dunyo xalqlari mulkiga aylantirishdagi ijobiy rolini qanchalik yuqori baholamaylik, bu jarayonda tengsizlikning vujudga kelayotganini ham e'tibordan chetda qoldira olmaymiz. Bu bir tomondan inson taraqqiy qilgan mamlakatlar bilan kam taraqqiy qilgan, yoki endi taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohada tafovutlarda sodir bo'lmoqda, yuksak rivojlangan mamlaxatlarning mavjud iqtisodiy resurslarga egalik qilishi, bugun intellektualni qo'lga kiritish va shu yo'l bilan o'z

hukmronligini ta'minlashga intilishni kuchayishiga olib kelayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu hukmronlikni ta'minlash - vositasi orqali o'zlarining g'oyalari, mafkuralari va dunyo qarashlarini ommaviylashtirishni ham avj oldirmokdalar.

O'tgan asrda kishilik hayotida juda muhim o'zgarishlar va kashfiyotlar sodir bo'ldiki, ularsiz hozirgi davrimizni tasavvur qilish mumkin emas. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, insoniyat tarakkiyotidagi yuksalishlar XXI asrla ham jadal sur'atlar bilan davom etaveradi. Bu davrda globallashuv ya'ni davlatlarning, xalqlarning ijtimoiy-iktisodiy jihatdan tobora rivojlanish va yaqinlashish jarayoni o'zining yangi cho'qqilarini zabt etishiga shubha yo'q. Ammo, ayni damda bu jarayon bashariyat oldiga bir qator muammolar, xavf-xatarlarni ko'ndalang qo'yishini unutmashimiz lozim.

Aytish kerakki, azal-azaldan sodir bo'lib kelgan, o'zga xalqlar ongiga o'z g'oyasini singdirish, boshqalarga o'z ma'naviyati va madaniyatini majburan qabul qildirish holatlari bizning davrimizga kelib juda avj oldi. Faqat, u o'zining ko'rinishlarini, ta'sir etish uslublarini tubdan o'zgartirdi. Endilikda mafkuraviy tahdidlar oldingidek ochiqdan-ochiq emas, balki asta-sekinlik bilan sezdirmasdan sodir etilyapti?!

Tarixchi olimlarning tahlillariga ko'ra yer yuzida dastlabki odamlarning paydo bo'lganiga kamida bir million yil bo'lgan. Bu kichik muddat emas. Albatta o'tgan vaqt mobaynida inson har tomondan kamol topdi, o'sib-ulg'aydi. Endilikda isonlarda moddiy eqtiyojlar bilan birgalikda ma'naviy extiyojlar ham vujudga kelganki, ularsiz bugungi hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Jumladan insonning o'zligini bilishga intilishi ham ana shunday ehtiyojlardan biri sanaladi. Negaki bugungi kunda deyarli barcha yurtdoshlarimizni "Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatimiz, qayoqqa qarab ketayapmiz? Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo'yganida bizning o'rnimiz qayerda va qanday bo'ladi?" degan savollar o'ylantirishi tabiiy". Darhaqiqat ma'lum darajada aql-idrokka, fahmu farosatga ega bo'lgan har bir inson o'zining kimligini bilishga intilishi, o'zining hayot yo'lini o'zi tanlashi, kerak bo'lsa o'zi uchun "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" qurishga harakat qilishi kerak. Mustaqil O'zbekistonda umr guzaronlik kilayotgan har bir vatandoshimiz ana shular haqida o'ylashi, fikr-mulohazalar yuritishi kerak, nafaqat bular balki bundan boshqa savollar, muammolar va maqsadlar doimo bizning diqqat markazimizda turishi lozim. Xususan "XXI asr O'zbekiston aholisi uchun qanday keladi? Kishilar turmushi kechagidan qanchalik yaxshiroq bo'ladi? O'zimiz uchun tanlab olgan islohatlar va yangilanish yo'li o'ta murakkab yul ekanligini anglayapmizmi? Bu yo'lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilyapmizmi?" degan o'y-xayollar bizni hech qachon tark etmasligi zarur.

Shu ma'noda yoshlarda millat taqdiri, kelajagi uchun mas'ullik tuyg'ularini shakllantirish, ularda yot g'oyalar oqimining, aqidaparastlik kayfiyatlarining salbiy oqibatlarini anglash, iroda va e'tiqod, ongli turmush kechirish ko'nikmalarini tarbiyalashda ma'naviy-madaniy tadbirlar, ommaviy axborot vositalarining kuchidan oqilona foydalanish talab etiladi. Jamiyatda g'oyaviy bo'shliqning paydo bo'lishiga yo'l

qo‘ymaslik, ma’naviy-axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” xavfini bartaraf etishga qaratilgan mustahkam va har tomonlama chora-tadbirlar tizimini yaratish bugungi kunning talabidir. Jamiyatni turli ijtimoiy, ma’naviy bo‘hronlardan saqlash, sog‘lom turmush tarzi uchun kurashning izchil tizimi barpo etilganligi ham davlat va jamiyat qurilishining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Demak, aholining mafkuraviy immunitetini kuchaytirish keng miqyosli madaniy-ma’rifiy tadbirlar bilan chegaralanib qolmasdan, aslida aholining ijtimoiy-ma’naviy hushyorligini nazarda tutmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ш.Мирзиёев Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.24.
2. Абдуллаев Т. Инсон эҳтиёжларининг шаклланиш хусусиятлари. ФарДУ Илмий хабарлари журнали: 2019 йил №1. –Б.65.
3. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.–India, 10(4), 360-364.
4. Shodiev, J. J. (2020). Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International engineering journal for research & development.-India, 5(3), 143-148.
5. Шодиев, Ж. Ж. Interpretation of the image of may in the ruba of Umar Khayyam. Monografia pokonferencyjna science, research, development, 33, 2020-30.
6. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём фалсафий қарашларида инсон тақдири ва эркин ирода масаласи. Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси, 2, 197-204.
7. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг асосий асарлари ва рубойларининг тузилиши, мазмуни ва таҳлили. Илм Сарчашмалари.-Урганч, 10, 44-47.
8. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём рубойларининг талқин ва тавсифи. Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси, 9, 206-210.
9. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. Фалсафа ва ҳуқуқ.–Тошкент, 3, 107-110.
10. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. Imam al-Bukhari IBS Journal, 2.
11. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида–комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. Scientific Bullettin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_4-сон, 229.
12. Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).

13. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 206-211.
14. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
15. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.
16. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVIY SALOHİYAT. Журнал истории и общества, (2)
17. SHODIEV, J. (2021). SOCIO-POLITICAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE PERIOD OF UMAR KHAYAM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
18. Shodiyev, J. (2021). O'ZBEKISTONDA IJTIMOİY-SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATI. Academic research in educational sciences, 2(2), 409-416.
19. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 197-202.
20. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.
21. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
22. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
23. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
24. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.
25. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.
26. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ.

In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).

27. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. GOLDEN BRAIN 1 (24), 59-67.

28. Jo‘raqulovich, S. J. (2023). O ‘ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.

29. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “MA‘MUN SCIENCE”, 1(2).

30. Shodiyev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. SCHOLAR, 1(28), 252-257.

31. Shodiyev, J. J. R. (2023). INSON-BU DUNYO FARZANDI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 357-369.

32. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 126.

33. Qodirova, G. Z., & Saidov, S. (2024). HUQUQSHUNOSLIKDA NOTIQLIKNING AHAMIYATI. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(9), 163-166.

34. Каримов, Б. (2011). Гармонизация взаимоотношений государства, общества и человека как основа справедливого общества. постановка вопроса. *Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество*, 8(1), 71-73.

35. Каримов, БК (2021). Гармония разума и духа. *Американский журнал социальных наук и инноваций в образовании*, 3 (05), 230–234.

36. Каримов, Б. (2023). ПРОЦЕССЫ МОДЕРНИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ДОКУМЕНТАХ ГЕНЕРАЛЬНОЙ АССАМБЛЕИ ООН (2017-2019). *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(24), 291-301.

37. Каримов, Б.К. (2023). СУЩНОСТЬ СОЗНАНИЯ И ЕГО ГЕНЕЗ. *Инновационное развитие в образовательной деятельности*, 2 (7), 532-539.

38. Karimov, B. (2023). ONG MUAMMOSINING ILMIY-FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TALQINI. *Farg'ona davlat universiteti*, (6), 37-37.

39. Мухлиса Д. и Худайбердиевич К.Б. (2023). РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ ЧЕЛОВЕКА. *ТЕОРИЯ И АНАЛИТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОСЛЕДНИХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 2 (16), 219-228.

40. Karimov, B. X. (2023). HISTORY OF CONSCIOUSNESS. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 304-316.

41. Karimov, B. X. (2023). NAVOIY VA MAXTUMQULI IJODIDA UMUMINSONIY G ‘OYALAR MUSHTARAKLIGI. *SCHOLAR*, 1(28), 161-176.

42. Каримов, Б.К. (2022). ГАРМОНИЯ РАЗУМА И ДУХА. РОЛЬ НАУКИ И ИННОВАЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ , 1 (2), 56-61.
43. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 17-17.
44. Sultanova, L. (2021). The historical roots of spiritual education of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 461-463.
45. Султонова, Л. С. (2023). ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИНГ УЗВИЙЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 633-639.
46. Sultonova, L. (2023). Upbringing Mature Person. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(3), 71-73.
47. Султанова, Л. С. (2023). ТОЛЕРАНТНОСТЬ В ВОСПИТАНИИ ПОДРОСТОЯЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 557-564.
48. Султонова, Л. С. (2022). МЕСТО ИНЖЕНЕРНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(6), 29-34.
49. Sultonova, L. S. D. (2023). MAFKURAVIY TARBIYANING DOLZARB VAZIFALARI. *SCHOLAR*, 1(28), 79-96.
50. Султонова, ЛСД (2023). ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЕЖЬЮ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *Образовательные исследования в области универсальных наук* , 2 (8), 238-252.
51. Қуронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент: Ғофур Ғулом, 2016. -Б. 254.
52. Нега ёшлар ишга жойлашмайди. “Ёш куч” журнали 2019. № 3. –Б 10.